



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 11 | pp. 91-99 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

IJTIMOIIY HIMOYA TIZIMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI



Atamuradov Sherzod Akramovich

Sharq universiteti rektori

Bafoev Farrux Jo'raqulovich

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan amaldagi mexanizmlar tahlil etilib, ijtimoiy himoya tizimining jamiyat farovonligiga ta'siri ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqot doirasida xalqaro va milliy statistik ma'lumotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy manbalar tahlil qilingan. Natijalar mamlakatda kambag'allik darajasining izchil pasayishi, bolalar kambag'alligining qisqarishi, ijtimoiy xizmatlarga kirish imkoniyatlarining kengayishi ijtimoiy himoya siyosati samaradorligidan dalolat berishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, manzilli yordam mexanizmlarini takomillashtirish, xizmatlar sifati va qamrovini oshirish, raqamli yondashuvlarni keng joriy etish hamda faol ijtimoiy himoya modelini shakllantirish zarurligi asoslab berilgan. Maqolada keltirilgan takliflar milliy ijtimoiy himoya siyosatini rivojlantirish va aholi ehtiyojmand qatlamini samarali qo'llab-quvvatlashga qaratilgan amaliy yo'nalishlarni belgilaydi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy himoya, ehtiyojmand qatlam, ijtimoiy xavfsizlik, davlat siyosati, moliyaviy mexanizm, ijtimoiy xizmatlar, neoliberalizm, keynsianizm, Esping-Andersen, ijtimoiy davlat, ijtimoiy tenglik, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy adolat, iqtisodiy siyosat, ijtimoiy tahlil.

Аннотация. В данной статье проанализированы действующие механизмы поддержки социально уязвимых слоёв населения Узбекистана, а также научно обосновано влияние системы социальной защиты на повышение общественного благосостояния. В рамках исследования изучены международные и национальные статистические данные, нормативно-правовые документы и научные источники. Полученные результаты показывают, что снижение уровня бедности, сокращение детской бедности и расширение доступа к социальным услугам являются индикаторами эффективности социальной политики. Одновременно обоснована необходимость совершенствования механизмов адресной помощи, повышения качества и охвата социальных услуг, активного внедрения цифровых подходов и формирования модели активной социальной защиты. Представленные в статье рекомендации определяют практические направления развития национальной системы социальной защиты и повышения эффективности поддержки нуждающихся слоёв населения.

Ключевые слова: социальная защита, уязвимые группы, социальная безопасность, государственная политика, финансовые механизмы, социальные услуги, неолиберализм,

кейнсианство, Эспинг-Андерсен, социальное государство, социальное равенство, гражданское общество, социальная справедливость, экономическая политика, социальный анализ.

Abstract. This article analyzes the existing mechanisms for supporting socially vulnerable groups in Uzbekistan and provides a scientific assessment of the impact of the social protection system on public welfare. The study examines international and national statistical data, regulatory documents, and academic literature. The findings indicate that the consistent reduction of poverty, the decline in child poverty, and the expansion of access to social services demonstrate the effectiveness of current social protection policies. At the same time, the research substantiates the need to improve targeting mechanisms, enhance the quality and coverage of social services, expand the use of digital technologies, and develop an active social protection model. The proposals presented in the article outline practical directions for strengthening the national social protection system and improving support for vulnerable segments of the population.

Keywords: social protection, vulnerable groups, social security, public policy, financial mechanisms, social services, neoliberalism, Keynesianism, Esping-Andersen, welfare state, social equality, civil society, social justice, economic policy, social analysis.

Kirish

Jahonning barcha mamlakatlarida ijtimoiy siyosatning asosiy vazifalaridan biri bu – aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami manfaatlarini himoya qilish, ularga munosib hayot sharoitlarini yaratish va ijtimoiy tenglikni ta'minlashdir. Davlat tomonidan aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash siyosati orqali ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash nafaqat insonparvarlik tamoyili, balki umumiy iqtisodiy taraqqiyotning ham muhim omili hisoblanadi.

Ayniqsa, iqtisodiy inqirozlar, pandemiya, ishsizlik darajasi o'sishi va tabaqalanishning kuchayishi sharoitida ijtimoiy himoya tizimi yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday sharoitda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini aniqlash, ularni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash va ushbu jarayonni samarali tashkil qilish vazifasi oldingi safga chiqadi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda ijtimoiy himoya sohasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Ijtimoiy himoya yagona reestri"ning joriy qilinishi, aholi ehtiyojmand qatlami bilan manzilli ishlash tizimining yaratilishi, zamonaviy texnologiyalar asosida raqamlashtirilgan ma'lumotlar bazasining shakllantirilishi — bu sohadagi muhim qadamlardir.

Biroq ijtimoiy himoya tizimining ilmiy-amaliy asoslarini teran anglash, uning nazariy yechimlari va metodologik yondashuvlarini qayta ko'rib chiqish bugungi kunda yanada dolzarb bo'lib bormoqda. Zero, davlat siyosatining ijtimoiy yo'naltirilganligi, uning maqsadlilik, shaffofligi va samaradorligi ko'p jihatdan aynan nazariy yondashuvlar va tadqiqot natijalariga tayanadi.

Mazkur maqolada ijtimoiy himoya tushunchasining nazariy asoslari, ijtimoiy davlat modellari, turli ilmiy maktablarning qarashlari hamda ijtimoiy himoya tizimining shakllanishiga ta'sir qilgan omillar tahlil qilinadi. Bu esa keyinchalik amaldagi ijtimoiy siyosatni takomillashtirishda mustahkam ilmiy asos vazifasini o'taydi.

Adabiyotlar sharhi

Ijtimoiy himoya tizimi har qanday davlatning ijtimoiy siyosatining ajralmas qismi sifatida jamiyatda tenglik, barqarorlik va adolatni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Aholining zaif qatlamini qo'llab-quvvatlash, turmush darajasini oshirish, ijtimoiy xavf-xatarlardan muhofaza qilish borasidagi davlat siyosati ana shu tizim orqali amalga oshiriladi. Shu boisdan, ijtimoiy himoya tushunchasining nazariy asoslari, uning shakllanish tarixi va rivojlanish bosqichlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy himoya tushunchasi ilk bor Yevropa mamlakatlarida XIX asrning oxirida va XX asr boshlarida shakllana boshlagan. Bu davrda ishchilarning mehnat sharoiti, kam ta'minlangan aholi qatlamining moddiy holati va pensiya ta'minotiga oid muammolar ijtimoiy himoya siyosatiga asos soldi. Dastlab ijtimoiy himoya faqat pensiya, nafaqa va tibbiy xizmatlar bilan bog'langan bo'lsa, bugungi kunda u keng qamrovli kompleks tizimga aylandi — ishsizlikdan sug'urta, kambag'allikni kamaytirish, manzilli yordam, ijtimoiy xizmatlar va boshqa ko'plab yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy himoyaning nazariy asoslari turli iqtisodiy va siyosiy maktablarda turlicha talqin qilingan. Masalan, **Jon Meynard Keyns** maktabida ijtimoiy himoya davlatning iqtisodiy funksiyalaridan biri sifatida qaraladi. Bu maktab vakillari jamiyatda daromadlarni qayta taqsimlash orqali umumiy talabni barqarorlashtirish va ijtimoiy barqarorlikka erishishni asoslashadi. Keynscha yondashuvda davlat tomonidan ijtimoiy xarajatlarning oshirilishi iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi.

Boshqa tarafdin, neoliberal iqtisodiy maktab (Fridrix Xayek, Milton Fridman) ijtimoiy himoyani bozor erkinligini cheklovchi omil sifatida baholaydi. Ularning fikricha, davlatning ortiqcha aralashuvi bozor samaradorligiga to'sqinlik qiladi va ijtimoiy himoyaning doirasi cheklangan, maqsadli va vaqtincha bo'lishi kerak. Bugungi kunda ko'pgina mamlakatlarda ana shu ikki yondashuvning aralash modeli qo'llanilmoqda — bu ham davlatning faol ishtiroki, ham xususiy sektorning mas'uliyatini o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy himoya konsepsiyasini ilmiy jihatdan teran tahlil qilgan taniqli olimlardan biri — Richard Morris Titmussdir. U — britan sotsiologi, tadqiqotchi va London iqtisodiyot maktabining professori sifatida ijtimoiy siyosat fanining shakllanishiga ulkan hissa qo'shgan. Titmuss ijtimoiy himoyani nafaqat moddiy yordam tizimi, balki fuqarolar o'rtasida tenglik, jamiyatdagi birdamlik va insonparvarlikni ta'minlovchi institut sifatida talqin qilgan. Uning mashhur "The Gift Relationship: From Human Blood to Social Policy" asarida davlatning ijtimoiy xizmatlardagi ishtiroki, insoniylik tamoyillari va jamoaviy burch haqidagi ilmiy asoslangan qarashlari bayon etilgan.

Shuningdek, daniyalik sotsiolog, zamonaviy ijtimoiy siyosat nazariyasining nufuzli namoyandalardan biri va Barselona universiteti professori Gyosta Esping-Andersen o'zining 1990 yilda nashr etilgan mashhur "The Three Worlds of Welfare Capitalism" asarida ijtimoiy davlat modellarining tipologiyasini ishlab chiqqan. U ijtimoiy himoya tizimlarini liberal, konservativ va sotsial-demokratik yo'nalishlarga ajratish orqali sohada yangi metodologik yondashuvni shakllantirdi.

Esping-Andersenning ijtimoiy davlat modellari



1-rasm. Esping-Andersenning ijtimoiy davlat modellari

Esping-Andersenning tadqiqotlari ijtimoiy himoyaning dekommodifikatsiya darajasi, tenglik siyosati va davlatning fuqarolarni himoya qilishdagi institutsional rolini aniqlashga muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy himoya tushunchasi islom iqtisodiyotida ham o'ziga xos o'rin tutadi. Zakot, sadaqa, fidya va vaqf kabi institutlar orqali nochor va ehtiyojmand aholini qo'llab-quvvatlash tizimi tarixan shakllangan bo'lib, ular jamiyatda moddiy yordam bilan bir qatorda ijtimoiy birlik, tenglik va insonparvarlik tamoyillarini mustahkamlagan. Islom iqtisodiyotidagi tadqiqotlar ham bu yo'nalishda muhim ilmiy asoslarni taqdim etadi. Jumladan, islom iqtisodchisi Monzer Qahf o'zining *"The Economics of Zakah"* (1995) asarida zakotning iqtisodiy va ijtimoiy mexanizm sifatida ahamiyatini ochib berib, uni daromadlarni qayta taqsimlash va kambag'allikni kamaytirishda samarali vosita ekanini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, Muhammad Hashim Kamali *"The Foundations of Islamic Governance"* (2008) asarida ijtimoiy adolat, insonparvarlik va davlatning nochor qatlamni muhofaza qilishdagi burchini islomiy tamoyillar asosida ilmiy jihatdan asoslab beradi. Ushbu tadqiqotlar islomiy institutlarning zamonaviy ijtimoiy himoya modellari bilan uyg'unlashishi, ularning jamiyat barqarorligi va tashqi ijtimoiy risklarni kamaytirishdagi o'rnini chuqur yoritib berishi bilan ahamiyatlidir.

O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar izchil olib borilmoqda va ushbu yo'nalishda qator muhimi natijalar erishilgan. Xususan, Bazarova G.G. o'zining *"Sotsialnaya zamita naseleniya kak glavnyy faktor obshchestvennogo blagosostoyaniya v Uzbekistane"* (2019) maqolasida mamlakatda ijtimoiy himoyaning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini yoritib, aholining ehtiyojmand qatlamini qo'llab-quvvatlashda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini tahlil qiladi. Xusanova X.T. va Tadjieva S.X. tomonidan tayyorlangan *"Adresnaya sotsialnaya zamita v Uzbekistane: evolyusiya razvitiya i sovremennost"* (2013) tadqiqotida esa manzilli ijtimoiy yordam mexanizmlarining tarixi, rivojlanish bosqichlari va amaliyotdagi o'rni ilmiy jihatdan

asoslab berilgan. Shuningdek, Narbaeva T.K.ning “Model povыsheniya effektivnosti sistema sotsialnoy zashchity jenşın v Uzbekistane” (2022) maqolasida ayollarni ijtimoiy himoya qilishning institutsional mexanizmi, maqsadli dasturlar va ularning samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Ushbu real tadqiqotlar milliy ijtimoiy himoya modelini takomillashtirish, manzillilik va samaradorlikni oshirishda muhim ilmiy asos sifatida xizmat qiladi.

Ushbu ilmiy qarashlar ijtimoiy himoya tizimini zamonaviy iqtisodiy, siyosiy va madaniy realliklar kontekstida qayta tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi. Bu esa keyinchalik ijtimoiy siyosatni shakllantirish va mablag'lardan samarali foydalanishda mustahkam nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada ijtimoiy himoya tizimining nazariy-metodologik asoslarini o'rganishda kompleks tadqiqot usullaridan foydalanildi. Avvalo, **tarixiy tahlil** usuli orqali ijtimoiy himoya tushunchasining shakllanishi va evolyusiyasi o'rganildi. Bu usul tizimning paydo bo'lishi, rivojlanish bosqichlari va tarixiy modellarini ochib berishda samarali bo'ldi.

Ilmiy qarashlar va maktablarni solishtirishda **solishtirma tahlil** usuli qo'llanildi. Xususan, Keynschilik, neoliberal va sotsial-demokratik yondashuvlar ijtimoiy himoya masalasida qanday farqli nuqtai nazarlarga ega ekani tahlil qilindi. Esping-Andersen modelining ahamiyati alohida belgilab o'tildi.

Ijtimoiy himoyaga oid asosiy atamalar, ta'riflar va olimlar qarashlari **kontent-tahlil** usuli orqali tadqiq etildi. Bu, xususan, jahon olimlarining ilmiy ishlarini mazmunan o'rganishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Shuningdek, **me'yoriy-huquqiy tahlil** orqali O'zbekistondagi qonunchilik va davlat dasturlari tahlil qilinib, milliy modelning normativ asoslari baholandi.

Umuman, tarixiy, solishtirma va mazmunli tahlil usullarining uyg'un qo'llanilishi nazariy yechimlarni chuqur anglash va ularni amaliyot bilan bog'lash imkonini yaratdi.

Tahlil va natijalar

Ma'lumki so'nggi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy himoya tizimi jamiyat farovonligining asosiy omillaridan biri sifatida alohida e'tibor markaziga aylanib bormoqda. Samarali ijtimoiy himoya dasturlari kambag'allik darajasini pasaytirish, aholi salomatligini yaxshilash, sifatli ta'lim va tibbiy xizmatlarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda aholi bandligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu borada xalqaro amaliyotdagi ijobiy tajribalarga nazar tashlaydigan bo'lsak, ijtimoiy himoya tizimi barqaror rivojlangan mamlakatlarda yuqori mehnat mahsuldorligi, aholi daromadlarining barqaror o'sishi va ijtimoiy tengsizlikning past darajada bo'lishiga xizmat qilmoqda. Shu boisdan, O'zbekistonda ijtimoiy himoya dasturlarini modernizatsiya qilishda xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish va milliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, mamlakatda kambag'allik, ijtimoiy oqimdan chetlashish, ishsizlik, uy-joy sharoitlarining pastligi, imkoniyati cheklangan shaxslarni ijtimoiylashtirishdagi qiyinchiliklar kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Ijtimoiy himoya tizimidagi holat shundan dalolat beradiki, uning yetarli darajada

kompleks emasligi va manzillilik darajasining pastligi aholi qatlamlari o'rtasidagi farqlarni kuchaytirish xavfini saqlab turibdi. Bunday holat, o'z navbatida, ijtimoiy barqarorlik va barqaror iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi, avvalo, uning qamrov darajasi, xizmatlar sifati va moliyalashtirish hamda taqsimot mexanizmlarining aniqligiga bog'liq. Tadqiqotlar ko'rsatadiki, O'zbekistonda aholining himoyaga muhtoj qatlamlarini aniqlashda raqamli texnologiyalarni qo'llash va yagona reestr mexanizmlarini rivojlantirish orqali manzilli yordamning samaradorligini oshirish imkoniyatlari mavjud. Bu nafaqat moliyaviy yordam samaradorligini oshirish, balki ijtimoiy xizmatlarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, ta'lim va tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Bundan tashqari, tadqiqot aholining mehnat bozorida ishtirokini kuchaytirishga qaratilgan kasbiy tayyorgarlik, qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlari aholining iqtisodiy faolligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Bunday dasturlar ishsizlik darajasini kamaytirish, yoshlar va ayollar tadbirkorligini rag'batlantirish hamda aholining iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashda katta rol o'ynaydi.

Ijtimoiy dasturlarning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi jarayonida jamoatchilik ishtirokini kengaytirish ham samaradorlikni oshiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Fuqarolar o'z farovonligiga daxldor qarorlarni shakllantirish jarayonida ishtirok eta olgan taqdirda, ijtimoiy siyosat aholining real ehtiyojlariga yanada yaqinlashadi va adolatli taqsimot imkoni oshadi.

Nihoyat, ijtimoiy himoya tadbirlarini ishlab chiqishda hududlar o'rtasidagi iqtisodiy, demografik va ijtimoiy farqlar inobatga olinishi zarur. Mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan, hududning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariga javob beradigan gibridd modellar resurslardan samarali foydalanish, ehtiyojmand qatlamni haqiqiy manzilli qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy adolatni ta'minlash uchun asos bo'ladi.

Tadqiqot doirasida yig'ilgan statistik ma'lumotlar O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar aholining turmush darajasiga bevosita ta'sir qilayotganini ko'rsatadi. Xususan, kambag'allikni kamaytirish, bolalar va ayollar kambag'alligi dinamikasi, aholining daromad manbalaridagi o'zgarishlar, ijtimoiy xizmatlarga kirish imkoniyatlarining kengayishi ijtimoiy himoyaning samaradorligi bilan chambarchas bog'liqdir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy siyosatda kompleks yondashuv, maqsadli yordam va raqamlashtirilgan mexanizmlar orqali manzillilikni ta'minlash aholi farovonligiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan:

Kambag'allik darajasining barqaror pasayishi — ijtimoiy himoyaning strategik natijasi. So'nggi yillarda mamlakatda kambag'allik darajasi izchil kamayib bormoqda: 2024 yil yakunlariga ko'ra, kambag'allik 8,9% darajaga tushgani ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari amaliy samara berganini tasdiqlaydi¹. Kambag'allikning 700 mingdan ziyod fuqaro hisobiga kamayishi aholining daromad manbalari diversifikatsiya qilingani, mehnat bozorida bandlik choralari kengaytirilgani va ijtimoiy transfertlar samarali yo'naltirilgani bilan bog'liq. BMT va Jahon banki ma'lumotlari ham shundan dalolat

¹ UZDaily: Poverty rate in Uzbekistan decreases to 8.9% in 2024 (<https://www.uzdaily.uz/en/poverty-rate-in-uzbekistan-decreases-to-89-in-2024/>)

beradiki, kambag'allikni kamaytirishda ijtimoiy himoya dasturlarining o'zi yetarli emas — ular mehnat bozori siyosati, aholi bandligi va tadbirkorlikni rag'batlantiruvchi choralar bilan uyg'un bo'lishi kerak. O'zbekistondagi kambag'allikning barqaror pasayishi ana shu kompleks yondashuvning amaliy natijasidir.

Bolalar kambag'alligining sezilarli kamayishi — ijtimoiy yordamning maqsadli yo'naltirilganligidan dalolat. 2021–2024 yillar davomida bolalar kambag'alligining qariyb ikki barobarga kamayishi (21,5% dan 11,4% gacha) ijtimoiy himoyaning muhim natijalaridan biridir. Bu ko'rsatkich bolalar uchun maqsadli transfertlar, "Temir daftar", "Ayollar daftari" orqali yordamlar, bolalar ovqatlanishi va tibbiy xizmatlar sifatiga qaratilgan davlat dasturlarining samaradorligidan dalolat beradi. YuNISEFning hisobotlariga ko'ra, bolalar kambag'alligi kamayishi ko'p bolali oilalarga yo'naltirilgan ijtimoiy paketlar va bog'cha-ta'lim tizimidagi o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq. Bu esa, ijtimoiy himoyaning ijtimoiy adolat va inson kapitali rivojiga ta'sirini yana bir bor tasdiqlaydi².

Ijtimoiy himoya va mehnat bozori o'rtasidagi bog'liqlik — aholi daromadlarining mustahkamlanishi

Statistik ma'lumotlar kambag'allikdan chiqishda asosiy omillardan biri mehnatdan olinadigan daromadlar ekanini ko'rsatadi. Ayniqsa, tadbirkorlik faoliyatining oshishi, xususi sektorda ish o'rinlarining ko'payishi va malaka oshirish dasturlari aholining iqtisodiy faolligini kuchaytirgan. Mehnat bozori va ijtimoiy himoya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy yordam fuqaroni faqat passiv iste'molchiga aylantirmasligi, balki uning iqtisodiy faolligiga turtki bo'lishi kerak. O'zbekistonda so'nggi ikki yilda amalga oshirilgan kasbga qayta tayyorlash dasturlari va yoshlar bandligini oshirishga qaratilgan loyihalar ana shunday "faol ijtimoiy himoya" modelining shakllanishini ta'minlamoqda.

Ijtimoiy xizmatlar sifati, sog'liqni saqlash va ta'limga kirish imkoniyatlarining kengayishi. Tahlillar faqat transfertlar emas, balki ijtimoiy xizmatlarga doimiy va barqaror kirish imkoniyatlari aholi farovonligiga katta ta'sir qilishini ko'rsatdi. Sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy rehabilitatsiya, bolalar parvarishi va imkoniyati cheklangan shaxslar uchun xizmatlar rivojlanishi kambag'allikni kamaytirishning "ko'p omilli" mohiyatini ochib beradi. YuNISEF, Jahon banki va Mehnat vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, hududlar o'rtasidagi tengsizlikni kamaytirish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va raqamli xizmatlar orqali shaffoflikni oshirish natijasida ijtimoiy himoyaning ta'sir doirasi sezilarli oshgan³.

Yuqoridagi tahlillar ijtimoiy himoyani faqat moddiy yordam ko'rinishida emas, balki mehnat bozori, ta'lim, sog'liqni saqlash, raqamlashtirish va hududiy rivojlanish bilan chambarchas bog'liq murakkab tizim sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish iqtisodiy o'sish, ijtimoiy barqarorlik va inson kapitalini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Kompleks yondashuv, raqamli texnologiyalardan foydalanish, targetlash

² Kun.uz (2025). Uzbekistan's poverty rate dropped to 8.9% in 2024. (<https://kun.uz/en/news/2025/02/03/uzbekistans-poverty-rate-dropped-to-89-in-2024?>)

³ World Bank (2023). Charting Uzbekistan's path to poverty reduction. (<https://blogs.worldbank.org/en/opendata/charting-uzbekistan-s-path-to-poverty-reduction--insights-from-i?>)

mexanizmlarini takomillashtirish va jamoatchilik ishtiroqini kuchaytirish — bu sohaning rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega yo'nalishlardir.

Xulosa va takliflar

Olib borilayotgan o'rganishlar O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimi jamiyat farovonligini ta'minlashda hal qiluvchi omil ekanini ko'rsatdi. Kambag'allik darajasining izchil pasayishi, bolalar kambag'alligining sezilarli kamayishi, axoli daromadlarining mustahkamlanishi va ijtimoiy xizmatlarga kirish imkoniyatlarining kengayishi mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini yoritib berdi. Shu bilan birga, ijtimoiy himoya tizimidagi mavjud muammolar — hududlar o'rtasidagi nomutanosiblik, manzilli yordam mexanizmlarining yetarlicha takomillashmaganligi, ijtimoiy xizmatlarning ayrim segmentlarda sifat jihatdan qoniqarsiz darajada bo'lishi — tizimni yanada modernizatsiya qilish zarurligini ko'rsatadi.

Tahlillardan ma'lum bo'ldiki, ijtimoiy himoya faqat to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy yordamni emas, balki ta'limga, sog'liqni saqlashga, bandlikka, kasbiy qayta tayyorlashga va ijtimoiy infratuzilmani yaxshilashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan taqdirda samarali natija beradi. Xorijiy mamlakatlar tajribasi ham shundan dalolat beradiki, ijtimoiy himoyada integrativ, raqamlashtirilgan va maqsadli yondashuvlar aholi farovonligini ta'minlashda eng yuqori natija beradi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Ijtimoiy himoyaning manzilli mexanizmlarini takomillashtirish. "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" orqali yordam oluvchilarni aniqlash tizimini scoring (ball berish) modeli asosida mustahkamlash.

Raqamli integratsiya orqali barcha ma'lumotlar birlashtirilgan yagona platformani yaratish.

2. Ijtimoiy xizmatlarning qamrovi va sifati oshirilishi. Sog'liqni saqlash, ta'lim, rehabilitatsiya va aholini ijtimoiy himoya qilish xizmatlarini har bir hududda standartlashtirish.

Mutaxassislar malakasini oshirish, ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi markazlarni modernizatsiya qilish.

3. Kambag'allikni kamaytirishga qaratilgan faol ijtimoiy himoya modelini joriy etish. Kasbga o'qitish, qayta tayyorlash va tadbirkorlik dasturlarini kengaytirish.

Aholining iqtisodiy faolligini rag'batlantiruvchi mikrokreditlar va grantlarni kuchaytirish.

4. Ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirishning barqaror modelini shakllantirish. Ijtimoiy dasturlar moliyalashtirilishining manbalari diversifikatsiya qilish (budjet, grantlar, xususi sektor ishtirokidagi sheriklik).

Natijaga yo'naltirilgan (result-based financing) modelini joriy etish.

5. Jamoatchilik ishtirokini va ijtimoiy javobgarlikni kuchaytirish. Ijtimoiy dasturlar loyihalash va amalga oshirish jarayonlariga Fuqarolik jamiyati institutlarini jalb etish.

Ommaviy monitoring mexanizmlarini joriy etish (public monitoring).

6. Hududiy xususiyatlarni inobatga olgan kompleks modelni joriy qilish. Har bir viloyat uchun demografik, iqtisodiy va ijtimoiy parametrlardan kelib chiqqan holda lokal ijtimoiy himoya strategiyasini ishlab chiqish.

“Bir hudud — bir dastur” tamoyili asosida hududiy muammolarni aniqlash va adresli yechim yaratish.

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot natijalari O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Manzilli yordam mexanizmlarini rivojlantirish, xizmatlar sifatini oshirish, raqamlashtirish imkoniyatlarini kengaytirish va mehnat bozori bilan integratsiyalashgan faol ijtimoiy himoya modelini joriy etish aholi farovonligini ta‘minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Taqdim etilgan takliflar milliy ijtimoiy siyosatni samarali tashkil etish, ehtiyojmand aholi qatlamlarini aniq qo‘llab-quvvatlash va jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Titmuss, R. M. (1970). *The Gift Relationship: From Human Blood to Social Policy*. London: George Allen & Unwin.
2. Esping-Andersen, G. *The Three Worlds of Welfare Capitalism*. — Princeton, NJ: Princeton University Press, 1990. — 260 p.
3. Kamali, M. H. (2008). *The Foundations of Islamic Governance: A Pragmatic Framework for Social Justice and Human Welfare*. Cambridge: Islamic Texts Society.
4. Kahf, M. (1995). *The Economics of Zakah*. Jeddah: Islamic Research and Training Institute (IRTI).
5. Базарова Г.Г. Социальная защита населения как главный фактор общественного благосостояния в Узбекистане // *Социосфера*. — 2019. — №2. — С. 120–123.
6. Хусанова, Х.Т.; Таджиева, С.Х. Адресная социальная защита в Узбекистане: эволюция развития и современность // *Молодой учёный*. — 2013. — №2 (44). — С. 290–293.
7. Нарбаева Т. К. Модель повышения эффективности системы социальной защиты женщин в Узбекистане // *Социальные исследования*. — 2022. — №3. — С. 102–109.
8. Улашев И.О., Атамурадов Ш.А. Корхона иқтисодиёти ва менежменти // *Ўқув қўлланма*. Тошкент-2013. — 2013.
9. Атамурадов Ш.А. Жаҳон амалиётида венчур капитали бозорининг ташкилий субъектлари // *Экономика и финансы (Узбекистан)*. 2023. №1 (161). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zha-on-amaliyotida-venchur-kapitali-bozorining-tashkiliy-subektlari> (дата обращения: 27.11.2025).
10. Атамурадов Ш.А. Венчур инвестицияларининг глобал тенденциялари ва ўзбекистон тажрибалари // *Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика)*. 2024. №9. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/venchur-investitsiyalarining-global-tendentsiyalari-va-zbekiston-tazhribalari> (дата обращения: 27.11.2025).
11. Ашурова Н.Б., Атамурадов Ш.А. Ўзбекистонда венчур молиялаштиришнинг янги моделларини ривожлантириш // *Экономика и финансы (Узбекистан)* 1 (2020): 133.

